



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-dekabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahar korxonalari tomonidan 66,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 100,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (72,9 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 16,6 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 7,9 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 0,6 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 0,2 % ga o'sishi kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,0 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 19,4 % ni tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish 4,8 marta oshgan boʻlsa, sheben qazib olish 24,8 % ga, tabiiy gaz 0,6 % ga, gazli kondensat 6,6 %, hamda graviy qazib olish 77,0 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-dekabr	2020-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Neft, <i>ming t.</i>	130,4	629,8	499,4
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	35 616,4	35 399,0	-217,4
Gaz kondensati, <i>ming t.</i>	808,0	754,8	-53,2
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	530,5	399,0	-131,5
Shag'al , <i>ming t.</i>	149,2	34,3	-114,9


Ishlab chiqarish sanoati


2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,7 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 72,9 % ni tashkil etdi.


**2019-yil,
% da**

**2020-yil,
% da**




**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,0 % ni (2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali 17,1 % (17,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 22,2 % (22,3 %) va quyi texnologiyali 28,7 % (29,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 32,4 % (2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,9 % (2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 72,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 9,0 % (2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 22,1 % (2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 9,3 % (2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,4 %) ni tashkil etdi.




Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2020-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 341,1 mln. dona butilka (2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 45,7 % ga o'sgan), 9 728,2 ming litr uzum vinosi (25,0 %), 1 395,0 mln. dona tamaki mahsuloti (24,8 %), 24 814,0 ming litr aroq 100 % spirt (29,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-dekabr	2020-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	249 607,3	278 436,0	28 828,7
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	17 975,0	25 725,8	7 750,8
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	16 303,2	15 911,3	-391,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	163,6	120,0	-43,6
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	437 020,0	400 765,0	-36255,0


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**

**2019-yil,
% da**

**2020-yil,
% da**


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,3 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,4 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,9 % ga oshganligi kuzatildi.





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-dekabr	2020-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	403,1	331,8	-71,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	12 904,9	13 494,2	589,3
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	466 629,0	1 066 355,0	599 726,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,8 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-dekabr	2020-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	93,5	67,8	-25,7
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	414,1	440,2	26,1
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	186,7	150,0	-36,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 6,3 % ga oshdi. Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 19,7 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 27,5 % ga pasayish kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 21,9 trln. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 32,9 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi o'tgan yil bilan bir xil 57,2 % kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,1 % (2019- yil yanvar-dekabr oylarida 6,7 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 16,5 % ni shuningdek, Yashnobod tumani 16,0 % ni, Mirobod tumani 10,0 % ni, Uchtepa 10,0 % ni, Chilonzor tumani 9,1 % ni hamda Mirzo-Ulug'bek 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (102,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (115,4 %), Uchtepa (109,9 %), Chilonzor tumanlarida (107,3 %) hamda Bektemir (105,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	21 971,1	100,0	102,0
Uchtepa	2 191,6	10,0	109,9
Bektemir	3 623,4	16,5	105,0
Yunusobod	1 082,6	4,9	103,1
Mirzo Ulug'bek	1 749,1	8,0	98,2
Mirobod	2 194,3	10,0	115,4
Shayxontohur	1 282,4	5,8	91,8
Olmazor	1 735,0	7,9	91,2
Sirg'ali	1 716,3	7,8	98,2
Yakkasaroy	890,8	4,1	88,9
Yashnobod	3 514,1	16,0	101,5
Chilonzor	1 991,5	9,1	107,3

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 43,3 %, shuningdek, Sirg'ali 11,2 % ni, Yashnobod tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mirzo Ulug'bek (116,4 %), Mirobod (108,1 %), Bektemir (106,9 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	7 837,7	100,0	100,8
Uchtepa	512,4	6,5	96,8
Bektemir	3 395,5	43,3	106,9
Yunusobod	317,4	4,0	103,2
Mirzo Ulug'bek	402,9	5,1	116,4
Mirobod	286,3	3,7	108,1
Shayxontohur	242,9	3,1	99,6
Olmazor	613,8	7,8	98,2
Sirg'ali	878,9	11,2	95,0
Yakkasaroy	135,3	1,7	84,7
Yashnobod	644,8	8,2	83,6
Chilonzor	407,4	5,2	96,6

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Mirobod tumaniga to'g'ri kelib, 15,2 % ni, shuningdek, Uchtepa 13,4 % ni, Yashnobod 13,3 % ni, Chilonzor 12,6 % ni, Mirzo Ulug'bek 10,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Uchtepa (114,7 %), Mirobod (116,6 %), Chilonzor (110,4 %), Yashnobod (107,7 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	12 577,9	100,0	102,1
Uchtepa	1 679,2	4,1	114,7
Bektemir	227,9	11,0	83,6
Yunusobod	661,1	4,7	102,8
Mirzo Ulug'bek	1 346,2	10,8	93,8
Mirobod	1 908,0	15,0	116,6
Shayxontohur	906,8	7,2	87,3
Olmazor	1 121,1	8,9	87,7
Sirg'ali	714,2	5,7	98,5
Yakkasaroy	755,4	6,0	89,7
Yashnobod	1 673,8	14,3	107,7
Chilonzor	1 584,1	12,4	110,4



**Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-dekabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	66 822,8	100,6
Uchtepa	4 940,4	101,9
Bektemir	3 903,3	95,9
Yunusobod	4 183,3	103,7
Mirzo Ulugʻbek	4 247,7	106,2
Mirobod	4 420,1	96,6
Shayxontohur	4 535,8	101,7
Olmazor	4 568,8	109,1
Sirgʻali	5 478,8	104,0
Yakkasaroy	5 915,5	77,2
Yashnobod	6 325,9	102,0
Chilonzor	18 303,3	115,5



Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Mirobod (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 77,2 %), Shayxontohur (95,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (115,4 %), Uchtepa (109,9 %), Chilonzor (107,3 %) hamda Bektemir tumanlarida (104,0 %) qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 27,4 %), Sergeli (9,5 %), Mirobod (8,9 %), Mirzo Ulug'bek (8,2 %) hamda Uchtepa (7,4 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Chilonzor (6,3 %) hamda Shayhontohur (5,8 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-dekabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 25,8 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Chilonzor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 75,4 %), Olmazor tumanida (72,8 %), Sirgʻali tumanida (63,5 %), Yunusobod (47,0 %), Yakkasaroy (46,1 %), Bektemir (36,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Mirobod (18,9 %), Yashnobod (20,8 %) va Shayxontohur (23,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,5 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,4 %) Olmazor tumaniga, 2,0 mingtasi (12,4 %) Chilonzor tumaniga, 2,0 mingtasi (11,9 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (11,1 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (9,1 %) Shayxontohur tumaniga, 1,5 mingtasi (8,8 %) Sirg'ali tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2020-yilning yanvar-dekabr oylarida shaharda 1 939 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 237 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 12,2 %) Chilonzor tumanida, 236 tasi (12,2 %) Olmazor tumanida, 205 tasi (10,6 %) Mirzo Ulug'bek tumanida, 193 tasi (10,0 %) Sirg'ali tumanida, 191 tasi (9,9 %) Yunusobod tumanida, hamda 190 tasi (9,8 %) Uchtepa tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 160 ta), Chilonzor (1 966 ta), Uchtepa (1 905 ta), Yunusobod (1 727 ta) hamda Shayxontohur (1 417 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar
(1 yanvar 2021 yil holatiga)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar
(1 yanvar 2021 yil holatiga)



2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (516 ta), Mirobod (923 ta), Yakkasaroy (1 249 ta), Yashnobod (1 264 ta), Mirzo Ulug'bek (1 320 ta) tumanlarida qayd etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi
(2020-yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra)

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 282 ta loyiha bo'yicha 5 171,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 79,6 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2020-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 1636 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 74,8 foizga kamaydi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019-yil yanvar-dekabr	2020-yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	269	280
Korxonalar soni, birlik	111	108
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm"	6 509,1	5 171,5
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH dollar"	106,3	79,6
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	5 911	1 636

Sanoat statistikasi
bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16